



Received: February 24, 2026
Accepted: March 23, 2026
Available online: March 25, 2026

Iroda Kaxarova

Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Iroda Kakharova

Associate Professor, Doctor of Sciences (DSc)
in Philology
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: iroda.kaharova@mail.ru
ORCID iD: 0000-0003-3964-7461

EMOTIV, TAQLID VA MODAL SO‘ZLAR PRAGMATIKASI HAMDA TARJIMA XUSUSIYATLARI

ANNOTATSIYA

Hozirgi tarjimashunoslikda til birliklarining pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganishga bo'lgan e'tibor tobora ortib bormoqda. Shu jihatdan, emotiv (undov), taqlid va modal so'zlarning tarjima jarayonidagi o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish ularning kommunikativ ta'sirchanligi hamda milliy-madaniy mazmunini adekvat ifodalash nuqtayi nazaridan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqola emotiv, taqlid va modal so'zlarning pragmatik xususiyatlari hamda ularning tarjima jarayonidagi o'ziga xos jihatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu til birliklarining nutqdagi pragmatik vazifalari, semantik imkoniyatlari va ingliz hamda o'zbek tillarida tarjima qilinish usullarini aniqlashdan iborat. Shuningdek, undov, taqlid va modal so'zlarning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berish hamda ularning tarjimada adekvat ifodalanish muammolarini yoritish ko'zda tutilgan.

Tadqiqot obyekti sifatida o'zbek va ingliz tillaridagi emotiv, taqlid hamda modal so'zlar, ularning badiiy va kommunikativ matnlardagi qo'llanilishi tanlangan. Tadqiqot predmeti esa mazkur birliklarning pragmatik ma'nolari, kontekstual funksiyalari va tarjima jarayonidagi transformatsiyalaridan iborat.

Maqolada pragmalingvistika, lingvokulturologiya va tarjimashunoslik yondashuvlari asosida undov, taqlid va modal so'zlarning semantik-pragmatik tabiati tahlil qilinadi. Tadqiqot vazifalari sifatida ushbu birliklarning pragmatik

THE PRAGMATICS OF EMOTIVE, ONOMATOPOEIC, AND MODAL WORDS AND THE PECULIARITIES OF THEIR TRANSLATION

ABSTRACT

In contemporary translation studies, increasing attention is being devoted to the pragmatic and linguocultural dimensions of linguistic units. In light of these considerations, investigating the translation of emotive, imitative, and modal words has become particularly relevant, as these units play a crucial role in conveying communicative intent and preserving national-cultural meanings across languages.

Accordingly, this article explores the pragmatic characteristics of emotive, imitative, and modal words and examines their distinctive features in the translation process. The study aims to identify the pragmatic functions, semantic potential, and translation strategies associated with these linguistic units in English and Uzbek. It also seeks to reveal their national-cultural specificities and address the challenges involved in their adequate rendering in translation.

To address these issues, the object of the research comprises emotive, imitative, and modal words in English and Uzbek, together with their use in literary and communicative texts. The subject of the study encompasses the pragmatic meanings, contextual functions, and translational transformations of these units. Drawing on the perspectives of pragmalinguistics, linguocultural studies, and translation studies, the article analyses their semantic-pragmatic nature. More specifically, the research focuses on identifying their pragmatic potential, clarifying their relationship with context, examining issues of

imkoniyatlarini aniqlash, ularning kontekst bilan bog'liqligini ochib berish, tarjimada ekvivalentlik va adekvatlik masalalarini yoritish hamda badiiy matnlardagi tarjima usullarini tahlil qilish belgilangan.

Tadqiqot natijasida undov, taqlid va modal so'zlar nutqning emotsional-ekspressiv ta'sirchanligini kuchaytiruvchi muhim vositalar ekani, ularning ma'nosi ko'p hollarda kontekst orqali yuzaga chiqishi aniqlangan. Shuningdek, tarjimada bu birliklarning ekvivalent, tavsifiy, transliteratsion yoki tushirib qoldirish usullari orqali ifodalanishi kuzatilgan.

Xulosa shuki, emotiv, taqlid va modal so'zlar har bir tilning milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim pragmatik birliklar hisoblanadi. Ularni tarjima qilishda nafaqat lug'aviy ma'no, balki kontekst, uslub va kommunikativ maqsadni ham hisobga olish zarur. Bu esa tarjima sifatini oshirish va asliyat ruhini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: emotiv so'zlar, undov so'zlar, taqlid so'zlar, modal so'zlar, onomatopeya, kontekst, semantika, tarjimashunoslik, ekvivalentlik, badiiy tarjima.

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda til – lison va nutqga antropotsentrik nuqtai nazardan yondashish natijasida shakllangan lingvokognitivlik, lingvokulturologiya va pragmalingvistika kabilar yangi yo'nalishlardir. Ular til hodisalarini inson omili nuqtai nazaridan o'rganadi.

“Pragmatika” shaxslararo muloqotni obyekt sifatida o'z ichiga olgan fan bo'lib, yunoncha “pragma, pragmatos”, ya'ni “ish-harakat” so'zlaridan olingan. U tilshunoslik va semiotikaga tegishli bo'lib, til belgilarining nutqda amal qilishini o'rganadi. Tildagi muayyan belgilar tizimini o'zlashtirib, undan foydalanuvchi sub'ektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o'rganadigan fan tarmog'i bo'lganligi uchun unda so'zlovchi va tinglovchining o'z fikriga modal munosabati, emotsional, ekspressiv, intensiv hislari, tasvirlash zavqi va intilishi aks etuvchi so'zlar turkumi – undov (emotiv), modal hamda taqlid (onomatop)larni o'rganishga alohida yondashiladi.

Pragmatika haqidagi asosiy g'oya amerikalik olim Ch.Pirs tomonidan o'rta tashlangan. So'ngra yana bir amerikalik olim Ch.Morris ham ushbu g'oyani rivojlantirib, “pragmatika” istilohini semiotika bo'limlaridan birining nomi sifatida amaliyotga tatbiq qilgan. Pragmatikaga tilshunoslik sohasi sifatida 1930-yillarda Morris, Karnap va Pirs tomonidan asos solingan.

Pragmatikada nutq adresati, o'zaro aloqaga kiruvchilarning munosabatlari, muayyan aloqa vaziyati singari omillar bilan bog'liq holda yana ko'plab masalalar

equivalence and adequacy in translation, and analysing translation techniques employed in literary texts.

The analysis revealed that emotive, imitative, and modal words serve as important means of enhancing the emotional and expressive impact of discourse, while their meanings frequently emerge through contextual interpretation. Notably, these units may be rendered through equivalent, descriptive, transliterative, or omission strategies in translation.

Overall, the findings highlight that translating emotive, imitative, and modal words requires consideration of lexical meaning, context, style, and communicative purpose to preserve the spirit of the source text and ensure translation quality.

Key words: emotive words, interjections, imitative words, modal words, onomatopoeia, context, semantics, translation studies, equivalence, literary translation.

o‘rganiladi. Pragmatika g‘oyalari evristik (yo‘naltiruvchi) dasturlash, mashina tarjimasini, informatsion-qidiruv tizimlari va boshqalarni ishlab chiqishda qo‘llanadi.

Semiotikaning mustaqil tadqiqot sohasi sifatida ochilishiga XX asrning 20-yillari boshlarida S. Morris, R. Karnap, S. Piers katta hissa qo‘shdilar. Xususan, sintaksis, semantika va pragmatika o‘rtasidagi klassik bo‘linish Morrisga borib taqaladi. U o‘zining belgilar fanida uchta alohida “semios o‘lchovlari”ni ajratib ko‘rsatdi.

Har qanday metakommunikativ faoliyat reflektiv va diagnostik tahlilga asoslanganligi sababli, sharhlovchi so‘z eng to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalent bo‘lib ko‘rinadi. Masalan:

“Men to‘g‘risini aytayapman” oddiy darak gapning modallashtirilgan holda berilishi: “Ehtimol, men to‘g‘risini aytayotgandirman” yoki “Menimcha, men to‘g‘risini aytayapman” ko‘rinishida namoyon etilishi mumkin.

Yana bir variant – amalga oshirilishi kerak bo‘lgan tegishli harakatlar nuqtai nazaridan tahlilni operativlashtirish: “Men yolg‘on aytmayapman” yoki “Men to‘g‘ri gapni aytayapman”.

Maqsad so‘zlovchining o‘zi bo‘lmasa, bunday metakommunikativ so‘zlar bog‘lanmasi, ayniqsa, tanqidiy bo‘lsa, qandaydir reaksiyaga sabab bo‘lishi mumkin (Hechqisi yo‘q; hammasi joyida yoki men har doim to‘g‘risini aytishim kerak!) va bu hatto kengaytirilgan ketma-ketliklarga olib kelishi mumkin.

Modal so‘zlar ketma-ket qo‘llanib kelishi mumkin: *Ha, haqiqatan ham, ehtimol*, u kelolmay qolishi mumkin. Bu gapda birdaniga uchta modal so‘z ketma-ket keltirilgan. Bular:

Tasdiqni bildiruvchi modal so‘z – *ha*.

Fikrning chinligini, to‘g‘riligini bildiruvchi modal so‘z – *haqiqatan ham*.

Fikrning gumonligini bildiruvchi modal so‘z – *ehtimol*.

Undov, taqlid va modal so‘zlar matn-struktura belgilaridir. Xususan, modal va undov so‘zlar atrofidagi nutqqa qanday mos kelishi e‘tiborni tortadi. Masalan, “demak” modal so‘zi keyingi fikrning avvalgi aytilgan fikr bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Modal so‘zlarning bir qismi orqali “sanoq ro‘yxat” (masalan, *birinchidan, ikkinchidan, uchinchidan* kabi) boshlash va yakunlash harakati bayon etiladi.

Summativ iboralar (masalan, xulosa qilish, umumlashtirish)ni, *aniqrog‘i, boshqacha qilib aytganda* kabilar “islohotchi”lik yoki qarama-qarshilikni, *aksincha* modal so‘zi “o‘rnini bosuvchi”, aytmoqchi – “diskursal o‘tish” ma‘nosini anglatadi.

“Mening fikrimcha” modal birikmasi rivoyatdan tashqari ikkita darajani farqlaydi: meta-daraja kabi. Bu hikoyani matn sifatida tavsiflovchi va tuzuvchi til belgilarini va rivoyatchi bilan bog‘liq bo‘lgan daraja – tinglovchi, shaxslararo xarakterga ega bo‘lgan elementlarni o‘z ichiga oladi (masalan, tinglovchiga yo‘naltirishni ta‘minlash, bayon qiluvchining sharhlari, munosabatlari va boshqalar).

Matnni, yozuvchini (yoki so‘zlovchini) va o‘quvchini (yoki tinglovchini) ta‘kidlaydigan turli xil konfiguratsiyalarni o‘z ichiga olgan “metadiskurs” tushunchasidan boshlanadi va ikkinchi bosqichda “metamatn” o‘rtasidagi farqni aniqlaydi.

Kontekst, semantika va pragmatika o‘zaro bog‘liq tushunchalar bo‘lib, semantika

va pragmatikaning lingvistik kichik sohalari ikkalasi ham ma'noni o'rganishga qaratilgan.

Shu o'rinda aytish kerakki, ma'no ko'chishi natijasida hosil bo'lgan almashinishlar sof pragmatik jarayonlar natijasida hosil bo'lmaydi. Bunda muqobillikning qaysidir ma'noda an'anaviylashganligi uning endi pragmatik asosga ega emasligini anglatmaydi.

TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqotda emotiv, taqlid va modal so'zlarning pragmatik xususiyatlari hamda ularning tarjima jarayonidagi ifodalanish usullarini aniqlash maqsadida tavsifiy (deskriptiv) metoddan foydalanildi. Ushbu metod yordamida o'zbek va ingliz tillaridagi mazkur til birliklarining semantik-pragmatik tabiati, nutqdagi funksional vazifalari hamda qo'llanish xususiyatlari tizimli ravishda tavsiflandi. Shuningdek, ularning badiiy va kommunikativ matnlardagi o'rni hamda emotsional-ekspressiv ta'sirni yuzaga chiqarishdagi roli yoritildi.

Tadqiqotning asosiy metodlaridan biri qiyosiy-chog'ishtirma tahlil metodi bo'lib, uning yordamida o'zbek va ingliz tillaridagi undov, taqlid hamda modal so'zlarning o'xshash va farqli jihatlari aniqlashtirildi. Xususan, G'.G'ulomning "Shum bola", T.Drayzerning "Baxtiqaro Kerri", G.Uellsning "Doktor Moro oroli" hamda boshqa badiiy asarlar va ularning tarjimalari qiyosiy tahlil qililib, tarjima jarayonida qo'llangan ekvivalent, tavsifiy, transliteratsion, transformatsion hamda tushirib qoldirish usullari o'rganildi.

Shuningdek, pragmatolingvistik tahlil metodi asosida mazkur birliklarning kontekstual ma'nolari, kommunikativ niyatni ifodalashdagi ishtiroki va adresant hamda adresat o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirishdagi o'rni tahlil qilindi. Bu metod orqali emotiv, taqlid va modal so'zlarning nutq vaziyati bilan uzviy bog'liqligi, ularning milliy-madaniy xususiyatlari hamda pragmatik potentsiali ochib berildi.

Tadqiqotda lingvokulturologik va interpretativ yondashuvlardan ham foydalanildi. Ular yordamida undov, taqlid va modal so'zlarning milliy tafakkur, madaniy qadriyatlar va til egalarining dunyoqarashi bilan bog'liq jihatlari izohlandi. Olingan natijalar umumlashtirish va ilmiy xulosalash metodlari asosida tizimlashtirilib, tarjima amaliyotida ushbu birliklarni adekvat ifodalash yuzasidan tegishli ilmiy xulosalar chiqarildi.

NATIJALAR

Undov, taqlid va modal so'zlarning lingvistik tarjimasida ularning sintaktik o'rni yoki grammatik vazifalari emas, semantik ifoda vazifasi e'tiborga olinsa, kommunikativ tarjimasida filologik yondashuvga asoslaniladi.

Undov, taqlid va modal so'zlarning ko'pincha ba'zan boshqa so'z ma'nosi tarkibida ifodalanishi yoki umuman **tushirib qoldirilishi** ham kuzatiladi. Ishimizda bu jihatdan o'zbek tilidan ingliz tiliga taqlid so'zlarning tarjimada tushirib qolishini G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasi misolida kuzatildi. Masalan: *Hay-hay, bozor bo'lganda ham qanday bozor deng?* (G'.G'ulom. Shum bola, 16) – *It was*

a very big market (G.Gulom. A Naughty Boy, 14).

Ko'riyaptiki, asliyatda bozorning gavjumligi, katta va boyligini ko'rib hayratlangan qahramonning mana shu hayajonli his-tuyg'usini ifodalash uchun qo'llanilgan his-hayajon undovi tarjima jarayonida tushirib qoldirilgan.

Umuman aytganda, qissaning inglizcha tarjimasida "shilt etib" ("**Shilt**" etib hamyonni oldim, pulini sanab ko'rsam, sakkiz so'm-u mirikam ikki tanga ekan, yonimdan unga ikki tanga qo'shdim (G'.G'ulom. Shum bola, 28) – *I took his wallet quickly and I counted his money in it. There were eight sums and two ringers in this wallet* (G.Gulom. A Naughty Boy, 21); "chirt yumib" (*Ortiqcha gap o'tmasligini sezgan domla ko'zini chirt yumib, bo'zani shimirib yubordi* (G'.G'ulom. Shum bola, 29) – *Mullah felt useless and drank alcohol quickly* (G.Gulom. A Naughty Boy, 23); "gurr etib" (*Hamma gurr etib o'rnidan turib, bizga qo'l qovushtirib salom berdi* (G'.G'ulom. Shum bola, 34) – *All of them stood up and bowed to us* (G.Gulom. A Naughty Boy, 28); "gurs etib" (*Og'ilxona tarafda bir nimaning "gurs" etib yerga yiqilib, xirillay boshlagani eshitildi* (G'.G'ulom. Shum bola, 44) – *At that time something fell down and started moaning. I heard that* (G.Gulom. A Naughty Boy, 36); "sho'p etib" (*Bir orqamga aylanib qaraganimni bilaman, bexosdan "sho'p" etib qamish-tuproq aralash pastga yiqilib tushdim* (G'.G'ulom. Shum bola, 45) – *Having looked back, I fell down in the kitchen of a house* (G.Gulom. A Naughty Boy, 37); "qiyq etib" (*Men shu xayollarda ekanman, "qiyq" etib eshik ochildi-da, bir kishi oyoq uchi bilan yurib keldi* (G'.G'ulom. Shum bola, 47) – *When I was looking at these stars, the door was opened and a man entered the kitchen* (G.Gulom. A Naughty Boy, 39); "cho'lp" (*Mening boshimdan bir gazcha baland joyda "cho'lp" etgan ovoz eshitildi* (G'.G'ulom. Shum bola, 47) – *I heard the sound of a kiss* (G.Gulom. A Naughty Boy, 39); "g'ilt-g'ilt etib" (*U ham menga g'ilt-g'ilt etib tikilib turardi* (G'.G'ulom. Shum bola, 70) – *He was also looking at me* (G.Gulom. A Naughty Boy, 61) kabi taqlid, "bay-bay" (*O'zi ham qanday eshak edi-ya, bay-bay eshagim* (G'.G'ulom. Shum bola, 44) – *Don't worry. I don't want to kill you* (G.Gulom. A Naughty Boy, 35) kabi undov so'zlarning tushirib qoldirilgani ko'rinadi.

Ayni damda ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girilgan matnlar tarkibidan ham undov, taqlid va modal so'zlarning tarjimada tushirib qolishi kuzatiladi. Ishimizda buni Teodor Drayzerning "Baxtiqaro Kerri" asari misolida kuzatildi. Bunda ingliz tilidagi asliyat matnida mavjud bo'lmagan undov, taqlid va modal so'zlar tarjimada qo'shilishi mumkin. Bu, albatta, muallif uslubiga ham, asar ruhiyatning o'zgarib ketishiga ham olib keladi. Masalan: *Well, I don't know, he answered. Tipping lazily back in his chair while she stood before him* (Th.D. Sister Carrie, 193) – **Him!** *Unday bo'lsa, ochig'i, bilmayman, – u kreslo bilan o'zini orqaroq olib va Kerrining tik turganidan sira ham xijolat bo'lmay erinibgina javob berdi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 257).

Keltirilgan misolda "him" undovi "xo'sh" ma'nosini ifodalashga xizmat qiluvchi "well" so'zi o'rnida berilgan bo'lsa, "ochig'i" modal so'zi asliyatda umuman mavjud bo'lmas-da, tarjimada qo'shilgan.

Ayniqsa, undov, modal, taqlid so'zlarning tarjimada tushirib qoldirilish holatlari ko'p uchraydi. Masalan: *Yomg'ir va bo'ron hukmida bo'lgan talay tashlandiq joylarda*

ham tunlari qator tuzilgan gaz chiroqlar yonib, shamolda lip-lip qilib turardi (T.D. Baxtiqaro Kerri, 21) – *There were regions to the sweeping winds and rain, which were yet lighted throughout the night with long* (Th.D. Sister Carrie, 11).

Yoki yana: *Ana shu sho'rvani apil-tapil ichib olib, yana tashqariga otildi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 26) – *A bowl of soup was all that she could afford, and, with this quickly eaten, she went out again* (Th.D. Sister Carrie, 14).

Bu gaplarning asliyatida qo'llangan **lip-lip** va **apil-tapil** kabi holatga taqlidni ifodalovchi so'zlar tarjimada tushirib qoldirilgan.

Ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girilgan matnlarda ko'pincha undov va taqlid so'zlarning tarjimada boshqa so'z bilan berilishi ko'p uchraydigan holatlardan biridir. Masalan: *Great big plate-glass windows and lots of clerks* (Th.D. Sister Carrie, 23) – *Deraza oynalari biram katta, odamlar g'ij-g'ij!* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 36).

Bunda "g'ij-g'ij" taqlid so'zi "lots" (ko'plab) miqdor ravishi bilan ifoda etilgan.

The big windows looked shiny and clean (Th.D. Sister Carrie, 26) – *Bahaybat oynali vitrinalar yaraq-yaraq qilardi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 40) gapida "yaraq-yaraq" takror taqlid so'zi yorqin va toza tushunchalarini anglatuvchi shiny and clean juft so'zlari orqali ifodalangan.

Asardagi *She went upstairs, where everything was silent* (Th.D. Sister Carrie, 40) gapida "silent" / "jim" so'zi "**churq** etgan ovoz eshitilmaydi" degan taqlid so'z ishtirokidagi murakkab birikma bilan ifoda etilishi natijasida ta'sirchanlik oshirilganiga guvoh bo'lish mumkin.

Ba'zan undov, taqlid so'zlarning o'zini aynan bermasdan, ularning ma'nosini izoh orqali o'girish usuli ham keng uchraydi. Masalan: *He said nothing at all, but there were thoughts in the air which left disagreeable impressions* (Th.D. Sister Carrie, 43) – *Pochchasi unga lom-mim demadi, shunday bo'lsa-da, kvartirada qandaydir norizolik ruhi vujudga keldi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 63). Bu gapda "lom-mim" tasviriy so'zi bilan yasalgan "lom-mim demaslik" qo'shma so'zi "birikmasi o'rnida "said nothing at all", ya'ni "umuman hech narsa demadi" tarzida berilgan.

O'zbek tilidan ingliz tiliga taqlid so'zlarning tarjimada boshqa so'z bilan berilishiga ham ko'p duch kelinadi. Masalan: **Chur-chur** *hushtakbozlik* (G'afur G'ulom. Shum bola, 23) – *The scandal started* (Gafur Gulom. A Naughty Boy, 18). Yoki: *Xotin dag'-dag' qaltirar edi* (G'afur G'ulom. Shum bola, 48) – *The woman was shivering* (Gafur Gulom. A Naughty Boy, 40) kabi gaplarda qo'llangan hushtak tovushini ifodalovchi "chur-chur", qo'rqmoq holatini tasvirlovchi "dag'-dag'" taqlid so'zlar o'z o'rnida qo'llanmagan.

"Shum bola" asaridagi *Omon ham mening gapimga po'k uchgan bo'lsa kerak, ikki gapning birida ha-ha-ha*, deb qo'yar edi (G'afur G'ulom. Shum bola, 83) gapi ingliz tiliga *I think Omon believed me. He was saying "aha, aha" while I spoke* (G'afur G'ulom. A Naughty Boy, 71) ko'rinishida o'girilgan bo'lib, undagi "po'k" taqlid so'zi tushirib qoldirilgan bo'lsa, "ha-ha-ha" undovi "aha, aha" ko'rinishida berilgan.

O'zbek tilidan ingliz tiliga undov so'zlarning tarjimada tushirib qolishi ham ko'p kuzatiladi. Bunga "Shum bola" qissasidan olingan quyidagicha parchalarni misol qilish mumkin: **Obbo**, *harom o'lgur; xo'kiz yomonlab qoldi-yov* (G'afur G'ulom. Shum

bola, 43) – *I thought it was the bull and I ran into the cowshed with the knife and the axe* (G.Gulom. A Naughty Boy, 36). Yoki: **Iya**, *Adol opang hali erga chiqmagan-ku?* (G'.G'ulom. Shum bola, 68) – *What?? Adolat is not married yet!* (Gafur Gulom. A Naughty Boy, 59); *Jahannam uzra bir ko 'prik erur*, **oh** (G'.G'ulom. Shum bola, 98) – *There is a bridge above the hell* (G.Gulom. A Naughty Boy, 84), **Ey** *attang, ha mayli, Xudo raxmat qilsin* (G'.G'ulom. Shum bola, 107) – *What? I feel sorry. All right, may God keeps him* (G.Gulom. A Naughty Boy, 91); **Hoy**, *musulmonlar, hoy xaloyiq!* (G'.G'ulom. Shum bola, 111) – *“Muslim people!” – He only said such* (G.Gulom. A Naughty Boy, 95); **Ey**, *Nasri Sayyor, minba 'd xurosoniylar sha 'niga bunday beodoblik qilmagaysan* (G'.G'ulom. Shum bola, 126) – *Nasri sayor, don't do such rudeness to the Khuroson people's honor* (G.Gulom. A Naughty Boy, 106) va h.k.

Ingliz tilidan o'zbek tiliga amalga oshirilgan tarjimalarda undov so'zlarning tushirib qoldirilishiga “Baxtiqaro Kerri” asaridan quyidagilarni misol qilish mumkin: **Oh**, *I need one, said Carrie* (Th.D. Sister Carrie, 43) – *Menga zontik kerak-da, axir!* – *Kerri unga shunday javob berdi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 61).

Bu gapda mutarjim asliyatdagi “oh” his-hayajon undovini tarjimada “axir” kuchaytiruv-ta'kid yuklamasiga almashtirib ifodalagan.

They're a close-fisted concern (Th.D. Sister Carrie, 47) – **O**, *ular juda pishiq odamlar-da* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 66) yoki **Oh**, *I don't play*, *ventured Carrie* (Th.D. Sister Carrie, 75) – *Men chalishni bilmayman-ku, – Kerri yurak yutib gap qo 'shdi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 104) gaplarida qo'llangan “o” va “oh” his-hayajon undovlari ham asliyatda mavjudligi ko'rinib turgan bo'lsa ham, tarjimada tushirib qoldirilgan.

O'zbek tilidan ingliz tiliga undov so'zlarning tarjimada boshqa so'z bilan berilishi “Shum bola” qissasida quyidagicha holatlarda kuzatildi: **Iye**, *– dedi Hoji bobo. – O'zi ham ko 'zga yaqin, xushro 'y besoqollardan edi* (G'.G'ulom. Shum bola, 118) – *What! He was near to the eyes, a handsome beardless man* (G.Gulom. A Naughty Boy, 101); *Mollaring shumi, boy bo 'lib qolibsan, ey lo 'livachcha* (G'.G'ulom. Shum bola, 19) – *Look at your goods; you have become really 'rich', you little gypsy* (G.Gulom. A Naughty Boy, 16); **Hay, hay, hay**, *men pul ushlagayman* (G'.G'ulom. Shum bola, 55) – *No, no I will never touch the money* (G.Gulom. A Naughty Boy, 48).

Ingliz tilidan o'zbek tiliga undov so'zlarning tarjimada tushirib qoldirilishi va boshqa so'zlar bilan berilishi kuzatilganda, “Baxtiqaro Kerri” romanidagi quyidagi misollar e'tiborimizni tortdi: **Ah**, *thought Carrie, with mournful misgivings, what is it I have lost* (Th.D. Sister Carrie, 71) – *Men hech nima yo 'qotganim yo 'q-ku?* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 98); **Oh**, *I don't play, ventured Carrie* (Th.D. Sister Carrie, 75) – *Men chalishni bilmayman-ku, – Kerri yurak yutib gap qo 'shdi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 104); **Oh**, *an hour or so ago. What makes you ask that?* (Th.D. Sister Carrie, 171) – *Bir soatcha bo 'ldi, – javob berdi Kerri. – Nimaga so 'rayapsan?* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 227); **Oh**, *I don't know, said Carrie, angered by the man's attitude. Perhaps I didn't want her to come* (Th.D. Sister Carrie, 275) – *Nima desamikin, – Kerri Gerstvudning gapidan ancha-muncha jahli chiqib javob berdi. – Uning kelishini ehtimol xohlamagandirman* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 366); **Oh**, *it's as fine as it can be* (Th.D. Sister Carrie, 350) – *Bunday zo 'r birorta mehmonxonani tasavvur qilish ham*

qiyin! (T.D. Baxtiqaro Kerri, 462).

O‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjimalarda modal so‘zlarning tushirib qoldirilishi ham ko‘p uchraydi. Bu fikrni “Shum bola” qissasi misolida ham dalillash mumkin. Masalan: **Darhaqiqat**, *sinchiklab qarasak boya poyezd dahshatidan qo‘rqan qo‘y bechora, bevaqt qochgan haromzoda bolasini chala tashlash uchun kuchanar edi* (G‘.G‘ulom. Shum bola, 74) – *We started to search, We saw the droppings of the sheep and followed them until we found two sheep near the stream alongside the railroad* (G.Gulom. A Naughty Boy, 64) yoki **Xullasi**, *bu jangnoma shu xildagi vahima gaplar bilan to‘la edi* (G‘.G‘ulom. Shum bola, 126) – *This story was full with such worry sentences* (G.Gulom. A Naughty Boy, 106).

Ingliz asarida modal so‘z mavjud emas esa-da, ammo uni o‘zbek tiliga o‘g‘irish jarayonida modal so‘zning tarjimon tomonidan matnga kiritilganiga guvoh bo‘lish mumkin. Masalan, bunga quyidagi gaplarning tarjimasi misol bo‘la oladi: *She saw that she would first need to get work and establish herself on a paying basis before she could think of having company of any sort* (Th.D. Sister Carrie, 9) – **Aytganday**, *odam o‘zini o‘zi boqishi uchun oldin biror ish topishi, keyin esa tanishish-panishishlarni o‘ylashi kerak* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 19); *Her new firm was a goodly institution* (Th.D. Sister Carrie, 20) – *U ishlaydigan firma chamasi yirik korxonaga o‘xshaydi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 34); *He wouldn’t mind – he’d enjoy it’, said Carrie* (Th.D. Sister Carrie, 23) – *Har holda u yo‘q demasa kerak. Mazza qilib keladi-ku, axir!* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 37); *I wouldn’t bother about it myself, though* (Th.D. Sister Carrie, 36) – **Darvoqe**, *shaxsan men bunga boshimni qotirib o‘tirmasdim* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 55); *You haven’t anything on hand for the night, have you? added Hurstwood* (Th.D. Sister Carrie, 37) – **Ehtimol**, *bugun biror ishingiz bordir? – so‘raydi mayxona boshqaruvchisi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 55); *I don’t know what I’m going to do about clothes, she said one evening when they were together* (Th.D. Sister Carrie, 42) – **Ochig‘i**, *qishda nima qilishimga hayronman, – dedi u bir kuni opa-singil ikkovlari xoli qolganlarida* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 62) va h.k.

Umuman, undov, modal, taqlid va tasviriy so‘zlarni tarjimada bera olish mutarjim mahoratiga bog‘liq bo‘lib, bunda tarjimonning tildagi turli birliklardan foydalanish imkoniyati kengayadi. Tarjimon undov, taqlid va modal so‘zlarning o‘ziga xos shakl va vazifalarini e‘tiborga olib, ularni tarjima qilishda aniq manbalarga, lug‘atlarga asoslanishi lozim.

Tarjima jarayonida aslyatdagi ayrim fe‘llarni tarjimada taqlid so‘zlar vositasida hosil bo‘lgan qo‘shma fe‘llar bilan ifodalash holatlari juda ko‘p uchraydi: *The Hansons expected her to go home* (Th.D. Sister Carrie, 51) – *Ko‘pincha opasi bilan pochchasi esa qachon ketarkan deb ko‘zlarini lo‘q qilib o‘tirishibdi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 73).

Ko‘rinyaptiki, gapda qo‘llangan “lo‘q” tasviriy so‘z aslyatda mavjud emas. U tarjimada qo‘shilgan. Uning qo‘shilishi natijasida tasvirdagi obrazlilik kuchaytirilgan. “Lo‘q” so‘zi ko‘pincha ko‘z qarashiga nisbatan ishlatilib, bezrayib turish tushunchasini ifodalab keladi.

Transliteratsiya undov, taqlid va modal so‘zlarni tarjimada berishning keng qo‘llanadigan usullaridan biridir. Lekin bunda tovushlarning to‘liq saqlanishi

yoki o'zgargan holda saqlanishi kuzatiladi. Masalan: *Um, he replied, for want of something better, and walked on* (Th.D. Sister Carrie, 29) – *Him!* – *usta yana nima deyishini bilmay ketaverdi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 45).

Bu misolda ingliz tilidagi “um” undovi o'zbek tilida “him” undovi bilan berilgan. Navbatdagi gapda esa ingliz tilidagi “uh” undovi o'zbek tilidagi “uf” undovi bilan ifodalangan. Holbuki, o'zbek tilida ham alohida “uh” undovi mavjud bo'lsa-da, tarjimon undan foydalanmagan. *Uh! She said, using the sound as an exclamation of disgust, I'll not argue with you” and there with arose to leave the table* (Th.D. Sister Carrie, 150) – *Uf!* – *missis Gerstvud ko'ksidan otilib chiqqan bu xo'rsiniqqa o'zining butun g'azabini joylashga harakat qilganday edi. Sen bilan adi-badi aytishib o'tirishga sira ham toqatim yo'q* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 201).

Aslida toliqish va zerikishni anglatuvchi “uf” va “uh” undovlari mazkur gapda jirkanish ma'nosini ifodalashga xizmat qilgan.

Afsuski, undov, taqlid va modal so'zlar tarjima lug'atlarda berilishiga yetarlicha e'tibor berilmagan. N.Aliboyeva buni taqlidlar misolida ko'rib chiqar ekan, ularning lug'at tuzuvchilar tomonidan e'tibordan chetda qoldirilganligiga bir necha misollar keltiradi. Masalan:

Blast [bla:st] 1.n. shamolning birdan kuchayishi; 2.v. portlamoq” [Butayev, Irisqulov, 2009; 60].

Yoki:

G'uvillamoq f. to howl wail hum [Butayev, Irisqulov, 2009; 790].

Ko'rinyaptiki, keltirilgan bu so'zlar sof taqlid so'zlar emas, balki sifat, ravish va fe'llardir. Demak, tarjima lug'atlarni bu jihatdan takomillashtirish, ularda undov, taqlid va modal so'zlarning izohini berish lozim.

Tovush va tovushlar birikmasidan tarkib topuvchi ayrim undov va taqlid so'zlar ingliz va o'zbek tillariga aynan emas, ularning taqlid fonosemantikasini o'zida ifodalagan izohlar bilan berilishi keng kuzatiladi. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Jumladan:

Carrie made no answer (Th.D. Sister Carrie, 159) – *Kerri hali ham churq etmasdi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 212).

Yoki:

She did not propose to be quarreled with (Th.D. Sister Carrie, 162) – *Qiz onasi bilan adi-badi aytishishni istamagandi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 215).

Birinchi gapda “no answer” / “javob bermadi” tushunchasi “churq etmoq” degan taqlid so'z+fe'l qo'shilmasidan iborat qo'shma fe'l orqali berilgan. Uning o'rnida indamadi, gapirmadi fe'llarini, “og'iz ochmadi” iborasini ham qo'llash mumkin edi. Ikkinchi gapda esa “janjallashish” tushunchasi o'rnida “adi-badi aytishish” fe'li keltirilgan.

Gapirmaslik yoki indamaslik holati “miq etmoq” degan taqlid so'z+fe'l qo'shilmasidan iborat qo'shma fe'l bilan ham beriladi: *She made no answer* (Th.D. Sister Carrie, 168) – *Missis Gerstvud uning gapiga miq etmadi* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 223). Ushbu gapda “miq etmaslik” fe'li “javob bermadi” fe'lga mos tushgan.

Gerbert Uellsning “Doktor Moro oroli” asarini [Gerbert, 1993] ingliz tilidan

T.Jo‘rayev va M.Mamajonova tarjima qilgan. Shu asarni kuzatganimizda, unda o‘zbek tilidagi chama va taxminni bildiruvchi “chamasi” modal so‘zining quyidagi so‘zlarni almashtirishda qo‘llanganiga guvoh bo‘ldik (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

Asliyatda	Tarjimada
He must have seen the question in my face, for my voice was inaccessible to me (Wells H.G. The Island of Dr. Moreau, 1896; 6)	Chamasi , u bu savolni yuzimdan payqadi, chunki ovozim o‘zingga ham eshitilmayotgan edi (G.Uells. Doktor Moro oroli, 1993; 9)
Once more I thought I caught the glint of his eyes, and that was all (Wells H.G. The Island of Dr. Moreau, 1896; 39)	Chamasi , ko‘zlari yana yiltillagandek tuyuldi (G.Uells. Doktor Moro oroli, 36)
He seemed puzzled at something. (Wells H.G. The Island of Dr. Moreau, 1896; 50)	Chamasi , u nimadandir qattiq hayratda edi (G.Uells. Doktor Moro oroli, 45).
I think indeed that I anticipate a little in speaking of it now (Wells H.G. The Island of Dr. Moreau, 1896; 92)	Chamasi , bu haqda gap ochib, mavzudan ilgari lab ketayotganga o‘xshayman (G.Uells. Doktor Moro oroli, 82)

Ko‘rinadiki, o‘zbek mutarjimplari ingliz tilidagi “kerak” ma’nosini ifodalovchi “must” so‘zini, “men o‘yladim” tushunchasini anglatuvchi “I thought”, “tuyilardi” fe’lini bildiruvchi “seemed fe’lini, “o‘ylaymanki” ma’nosidagi “I think” modal birikmasini birgina “chamasi” modal so‘zi bilan berganlar va imkon qadar adekvatlikka erishganlar. Ular yana “tuyilmoq” ma’nosini anglatuvchi “seemed fe’lining ma’nosini o‘zbek tilidagi chama-taxminni bildiruvchi “aftidan” modal so‘zi bilan ham ifoda etganlar: *Aftidan, gaplarim uni qiziqtirib qo‘ydi* (G.Uells. Doktor Moro oroli, 1993; 10) – *He seemed interested in this* (Wells H.G. The Island of Dr. Moreau, 1896; 7).

Fikrning yakunini, xulosasini ifodalovchi modal munosabatlar ushbu asarning o‘zbek tiliga tarjimasida yo nihoyat, yo xullas kabi modal so‘zlar bilan ifodalangan: *In the dawn the sail was nearer, and I saw it was the dirty lug-sail of a small boat* (Wells H.G. The Island of Dr. Moreau, 1896; 123).

Bu gapda uzoq kutilgan narsa-hodisaning yakuniga e’tibor qaratilmoqda. Ammo unda modal so‘zdan foydalanilmagan. Shunday bo‘lsa-da mutarjim uni o‘g‘irishda matn mazmunidan kelib chiqib, “nihoyat” modal so‘zini qo‘llagan: *Nihoyat, kema erta saharga yaqin keldi, u hech qanaqa kema emas, iflos bir yelkanli qayiq ekan* (G.Uells. Doktor Moro oroli, 109). Natijada bu so‘z “kirish so‘z” vazifasida qo‘llanib, matnning sintaktik qurilmasida o‘zgarish yasagan.

Ba’zan “nihoyat” modal so‘zining “**presently**” – “hozirda” payt ravishi qo‘llangan gaplarda ko‘zlangan ishning yakunlangani, tugaganini bildirish uchun qo‘llanishi kuzatiladi: *Presently that work was finished, and then came a struggle* (Wells H.G. The Island of Dr. Moreau, 20) – *Nihoyat, yuklar tushirib bo‘linib, navbat menga yetdi* (G.Uells. Doktor Moro oroli, 21).

Shuningdek, “nihoyat” modal so‘zi “keyin”, “shunda” ma’nosini anglatuvchi “**then**” payt ravishi qo‘llangan gaplarda bir ishning yakunlanib, boshqasi boshlanganini bildirish uchun ham tarjimada aks ettirilgani ko‘rinadi: *Then I heard the sound of the sea* (Wells H.G. The Island of Dr. Moreau, 1896; 40) – *Nihoyat, dengizning*

shovullashi eshitildi (G.Uells. Doktor Moro oroli, 37).

Bunda tarjimon “I heard” / “Men eshitdim” degan ifodani birinchi shaxs (muallif tili)da emas, majhul nisbatda (eshitildi) berganligi uchun “keyin” soʻzini qoʻllay olmagan va uning oʻrnida “nihoyat” modal soʻzini qoʻllashga majbur boʻlgan.

Quyidagi gapda “nihoyat” modal soʻzi “shunda” payt ravishini almashtirgan: *Then Montgomery hiccoughed, Who – said he was dead?* (Wells H.G. The Island of Dr. Moreau, 1896; 99) – *Nihoyat, Montgomeri hiqichiq aralash ovozda: – Kim, uni oʻldi deyayotgan? – deb soʻradi* (G.Uells. Doktor Moro oroli, 88).

Ingliz tilida “At last” soʻzi oʻzbek tilida “nihoyat” modal soʻziga muqobil soʻzdir. Ularni tarjimada bir-birining oʻrnida qoʻllash adekvatlikka olib keladi: *At last with an effort I put out the light and got into the hammock* (Wells H.G. The Island of Dr. Moreau, 1896; 75) – *Nihoyat, oʻzimni majburlab, chiroqni oʻchirdim va toʻr belanchakka chiqib yotdim* (G.Uells. Doktor Moro oroli, 67).

Faqatgina oʻzbek tilida modal soʻzlar gapning qaysi oʻrnida (boshi, oʻrtasi yo oxirida) kelishidan qatʼi nazar vergul bilan ajratiladi. Shu orqali ularning alohida soʻz ekani, boshqa gap boʻlaklari bilan bogʻlana olmasligi, shuning uchun ajralib turishini bildiradi. Biroq ingliz tilida bunday holat deyarli kam uchraydi: *At last the fury of the hunt slackened* (Wells H.G. The Island of Dr. Moreau, 1896; 89) – *Nihoyat, quvdi-quvdi hovuri biroz bosildi* (G.Uells. Doktor Moro oroli, 80).

Yoki yana: *At last we drew near the westward extremity of the island* (Wells H.G. The Island of Dr. Moreau, 1896; 101) – *Nihoyat, biz orolning gʻarbiy burchiga ham yetib keldik* (G.Uells. Doktor Moro oroli, 90).

“Xullas” modal soʻzi ham fikrning tugaganiga ishora qiladi. Shuning uchun u inglizcha matnlarda qoʻllangan “shunday qilib” maʼnosini anglatuvchi “So” soʻzi oʻrnida keltiriladi: *So I waited passively upon fate* (Wells H.G. The Island of Dr. Moreau, 1896; 20) – *Xullas, peshonada borini koʻrishga rozi boʻlishdan boshqa ilojim yoʻq edi* (G.Uells. Doktor Moro oroli, 21).

Quyidagi gapda asar qahramonining xulosasi aks etgani uchun tarjimon unda “xullas” modal soʻzini qoʻllash orqali soʻzlovchining oʻz fikriga munosabatini aks ettirishga erishgan: *There was nothing for it but courage*” (Wells H.G. The Island of Dr. Moreau, 1896; 106) – *Xullas, oʻz matonatimga tayanmoqdan boshqa ilojim qolmagan edi* (G.Uells. Doktor Moro oroli, 97).

Ammo quyidagi jumlada “xullas” modal soʻzining qoʻllanishiga u qadar ehtiyoj kuzatilmasa-da, tarjimon undaan ortiqcha foydalangan: *Slowly we pushed in among the fretted network of branches and leaves* (Wells H.G. The Island of Dr. Moreau, 1896; 90) – *Xullas, uzun-qisqa boʻlib, shoshilmay bir-biriga chirmashib ketgan shox-shabbalar orasidan oʻtib borardik* (G.Uells. Doktor Moro oroli, 80).

Koʻpincha oʻtmishni eslash, xotirlash, yodga solish jarayonida “darvoqe” modal soʻzi ishlatiladi: *Well? said he in the doorway. You were just beginning to tell me* (Wells H.G. The Island of Dr. Moreau, 1896; 7) – *Darvoqe, – dedi u ostona hatlarkan, – boshingizdan kechirgan voqealarni gapirib bermoqchi edingiz* (G.Uells. Doktor Moro oroli, 1993; 10).

Ingliz tilida “indeed” soʻzi ham modal soʻzlardan biridir. U oʻzbek tilidagi

“haqiqatan ham”, “darhaqiqat” kabi fikrning to‘g‘ri, asosli, chinligini bildiruvchi modal so‘zlarga muqobil kela oladi. Shunday bo‘lsa-da, quyidagi parchada uning “darvoqe” so‘zi o‘rnida keltirilgani kuzatiladi: *A similar operation is the transfusion of blood, – with which subject, indeed, I began* (Wells H.G. The Island of Dr. Moreau, 1896; 67) – *Qon quyish ham xuddi shuning o‘zginasi, darvoqe, men faoliyatimni shuni o‘rganishdan boshlaganman* (G.Uells. Doktor Moro oroli, 60).

Ba‘zan uning fikrning manbasini ko‘rsatuvchi modal so‘zlar o‘rnida keltirilganiga ham guvoh bo‘lish mumkin: *I suppose that’s what your humanity would suggest?* (Wells H.G. The Island of Dr. Moreau, 1896; 102) – *Darvoqe, keyin sizning insonparvarligingiz ham bunga yo‘l qo‘ymasa kerak* (G.Uells. Doktor Moro oroli, 91).

Aslida “I suppose” – “menimcha” modal so‘zi bilan berilishi lozim edi.

O‘zbek tilidagi “alhol” modal so‘zi ayni aytdagi holatga munosabatni ifoda etishi tufayli ko‘pincha payt hollari o‘rnida ishlatiladi. Masalan: *Meanwhile the sailors progressed rapidly with the task of unshipping the packages and caged animals* (Wells H.G. The Island of Dr. Moreau, 1896; 20) – *Alhol, dengizchilar chaqqonlik bilan yuklarni, hayvonlar qamalgan qafaslarni tushirishardi* (G.Uells. Doktor Moro oroli, 20).

Yoki: – *Presently I heard an animal wailing again, and talking it to be the puma, I turned about and walked in a direction diametrically opposite to the sound* (Wells H.G. The Island of Dr. Moreau, 1896; 36) – *Alhol, qulog‘imga yana hayvonning o‘kirig‘i eshitildi, men puma bo‘lsa kerak, deb o‘ylab, ters burildim va qarama-qarshi tomonga qarab keta boshladim* (G.Uells. Doktor Moro oroli, 33).

Yana: *In another second I was running, one of a tumultuous shouting crowd, in pursuit of the escaping Leopard-man* (Wells H.G. The Island of Dr. Moreau, 1896; 88) – *Alhol, men ham ayyuhannos solgancha chopib ketayotgan to‘da bilan birga qoplonsifat odam ortidan quvdim* (G.Uells. Doktor Moro oroli, 78).

Keltirilgan gaplarda “**meanwhile**” // “ayni paytda”, “**presently**” // **shu paytda**”, “**in another second**” // “**yana bir soniyada**” degan payt ravishlarini ifodalash uchun “alhol” modal so‘zidan foydalanilgan.

O‘zbek tilida “**aytishlaricha**” modal so‘zi fikrning boshqalarga tegishli ekanini bildiruvchi modal so‘zdir. Quyidagi gapda u gap mazmuniga qarab keltirilgan: *She was said to be a passionate votary of the Law* (Wells H.G. The Island of Dr. Moreau, 1896; 78) – *Aytishlaricha, u nihoyatda taqvodor va o‘taketgan Qonun tarafdori emish* (G.Uells. Doktor Moro oroli, 70).

“Albatta” modal so‘zi fikrning tasdig‘ini bildirishga xizmat qiladi: *Yet every now and then the beast would flash out upon me beyond doubt or denial* (Wells H.G. The Island of Dr. Moreau, 1896; 80) – *Albatta, hayvoniy xislatlar vaqti-vaqti bilan yarq etib ko‘zga tashlanib ham qolardi* (G.Uells. Doktor Moro oroli, 71).

Quyidagi gap tarjimasida “alalxusus” modal so‘zi ingliz tilida agar bog‘lovchisi bo‘lib keladigan “If” so‘ziga moslab olingan: *If some brute has by any accident tasted blood* (Wells H.G. The Island of Dr. Moreau, 1896; 84) – *Alalxusus, ulardan birortasi qon ta‘mini totgan bo‘lsa* (G.Uells. Doktor Moro oroli, 75).

Quyidagi gap mazmunan qat'iy fikr ifodasiga qaratilgan uchun mutarjim uning tarjimasida "tayinki" modal so'zidan foydalangan: *He had been strangely under the influence of Moreau's personality* (Wells H.G. *The Island of Dr. Moreau*, 1896; 102) – **Tayinki**, u Moroning ta'siriga juda berilgan shaxs edi (G.Uells. Doktor Moro oroli, 90).

Ingliz tilida "do you think the" birikmasi o'zbek tilidagi fikrning manbasini aniqlashga qaratilgan "sizningcha" modal so'ziga mos keladi. Ammo quyidagi gapning tarjimasida mutarjim bu o'rinda "mabodo" degan chama-taxminni bildiruvchi modal so'zni qo'llangan: *Do you think the whole damned ship belongs to you?* (Wells H.G. *The Island of Dr. Moreau*, 1896; 12) – *Mabodo, butun kemani ham o'zingizniki deb o'ylayapsizmi?* (G.Uells. Doktor Moro oroli, 1993; 15).

"As it is" "xuddi shunday" deganidir, ammo yuqoridagi kitob tarjimasida bu birikma o'rnida "afsus" degan achinishni, afsuslanishni anglatuvchi "afsus" modal so'z qo'llanilgan: *As it is, you have wasted the best part of my day with your confounded imagination* (Wells H.G. *The Island of Dr. Moreau*, 1896; 65) – *Afsus, sizning bemaza vasvasangiz tufayli bugun juda ko'p qimmatli vaqtimni yo'qotdim* (G.Uells. Doktor Moro oroli, 58).

Modal so'zlar gap boshida, o'rtasida, oxirida kelishi ma'lum, ammo tarjimada ba'zan ularning o'rni almashadi. Ingliz tilida modal so'zlar har doim ham vergul orqali ko'rsatilavermaydi.

Emotsionallik nutqiy kategoriya bo'lib, borliqdagi narsa va hodisalarni ma'qullash yoki ma'qullamaslik, turli insoniy tuyg'ularni ifodalash uchun xizmat qiladiki, bunda u har doim baholash tushunchasi qurshovida voqelanadi. Shunday holatlarni ifodalovchi undov so'zlarning asliyat va tarjimada aynan saqlanishi kuzatiladi: **Oh**, *what a beast I am* (S.M. Theatre, 71) – **Oh**, *men g'irt cho'chqaning o'ziman-a!* (G.M. O'tkinchi ehtiros, 52).

Bundan emotsional ma'no esa, o'z navbatida, leksik ifodalanishdan tashqari, his-tuyg'u va sezgilarni ham aks ettirishi yorqin anglashiladi [Aznaurova, 1973]. Emotsional fikrlash psixologlar tomonidan azaldan ob'ektiv mavjud fenomen deb tan olinadi [Tixomorov, 1984]. Jumladan, K.E.Izard emotsionallikni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilar ekan, uni obyektiv haqiqatni tushunish, idrok etish va baholashning shakllaridan biri sifatida qayd etadi [Izard, 2008]. Bunda emotiv – bu so'z, so'z esa, o'z navbatida, ongning elementi ekanini unutib bo'lmaydi. J.Layonz tushunchalar va emotsiyalarni fikrlash faoliyatining qarama-qarshi qutblariga ajratgan holda bir-biriga qat'iy qarama-qarshi qo'yadi [Layonz, 1978]. Emotsionallik inson hissiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shu his-kechinmalarni turli lisoniy vositalar yordamida voqelantiradi. Buni quyidagi misollar asosida ham dalillash mumkin:

"Oh!" *he said* (Wells H.G. *The Island of Dr. Moreau*, 1896; 50) – **"O'-o'!** – *dedi u hayratlanib* (G.Uells. Doktor Moro oroli, 45).

Yoki: *But where are the huts?* – **Oh!** (Wells H.G. *The Island of Dr. Moreau*, 1896; 51) – *Qayerda yerto'langiz?* – **O'-o'!** (G.Uells. Doktor Moro oroli, 46).

Asliyat tilida his-hayajonni ifodalash uchun yozuvchi bir bo'g'indan iborat **Oh** undovidan foydalangan bo'lsa, tarjima tilida birgina tovushdan iborat **o'** undovi

takrori (o'-o') qo'llanilgan. Lekin har ikkala matnda ham hayratlanish mazmuni va ohangi saqlangan. Ularning har ikkovi kuchli va konnotativ emotsiyani ifodalashga xizmat qilgan.

S.Moemning "Oy va sariq chaqa" romanida Striklend xonimning Mak Endryu xonimga murojaati ingliz va o'zbek tillarida quyidagicha ifoda etilgan:

Aslyiat – inglizchada: Oh, my dear, remember what we've just heard (S.M. The Moon and Sixpence, 80).

Tarjima til – o'zbekchada: *Eh, jonginim, u to'g'risida senga aytib berishgan gaplarni eslab ko'r* (R.I. Oy va sariq chaqa, 62).

Asl nusxadagi his-hayajon *Oh, my dear, remember what we've just heard* jumlasini o'zbek tiliga tarjima qilganda *Eh, jonginam, biz hozirgina eshitgan gaplarni bir eslab ko'r* degan mazmun chiqadi. Chunki asl nusxada "u to'g'risida senga aytib berishgan" jumlasini yo'q.

Asarda yana *Oh, if you knew the frightful anguish in my heart; Oh, if you only knew what I've suffered!; If I'd only waited, perhaps it would have gone all right. I shouldn't have been so impatient. Oh, poor child, what have I driven her to?* (S.M. The Moon and Sixpence, 152) – *Eh, menga qanday dahshatli qiynoqlar azob berishini bilsayding! Eh, mening naqadar azob chekayotganimni sen bilsayding! Agar men hovliqib bu gaplarni aytmaganimda, hammasi o'tib ketarmidi. Bunchalik besabr bo'lish yaxshimas. Bechora xotinimni shunchalikka olib bordim-a!* (R.I. Oy va sariq chaqa, 116) kabi gaplar keltirilganki, bizningcha, ularni berishda muallif to'g'ri yo'l tutgan. Negaki, **oh** undovi ko'pincha insonga xos chuqur ichki dardni, ruhiy qiynoqni, ozorlanishni, cheksiz afsusni o'zida ifodalab keladi. Bunga uning tarkibidagi **o** tovushining til orqa, keng unli ekani, ya'ni bu tovush e ga nisbatan ichkariroqda, chuqurroqda paydo bo'lishi bilan ham ta'sir ko'rsatishi tabiiy. **Eh** undovi esa bu jihatdan ko'proq achinish va afsuslanishni bildiradi. Shunga ko'ra aytish mumkinki, aslyiatda tarjimaga nisbatan emotsionallik kuchliroq ifoda etilgan.

Dirk rafiqasi Blanshning janob Striklend bilan janjallashib qolgandan so'ng o'zini-o'zi o'ldirish niyatida kislotaga ichgani haqidagi xabarni eshitib, uni tezda kasalxonaga olib boradi. Bunda uning iztiroblari quyidagi his-hayajon undovi orqali ochib berilgan: *Oh, if you knew how she's suffering!* (S.M. The Moon and Sixpence, 172) – *Eh, sen uning qanchalar qiynalganini bilsang edi!* (R.I. Oy va sariq chaqa, 131).

"Oy va sariq chaqa" romanida Stryov Striklendni tirik ko'rgandagi cheksiz quvonch va hayajoni *Oh, my God, I thought you were dead* (S.M. The Moon and Sixpence, 125) tarjimada: *Ey, xudoyim! Men sizni o'lib qoldi, deb o'ylabman* (R.I. Oy va sariq chaqa, 95) gapi bilan berilgan.

Shu asarda ayol o'z fikrida qat'iy turib, keskin noroziligini eriga yolvorib ta'kidlar ekan, uning nutqida "oh"//"oh" undovi va inkor hamda norozilikni bildiruvchi "yo'q" // "no" modal so'zi qo'llangan: *Oh, Dirk, I've never since we met asked you to do anything for me. No, no. I know I'm right. Something terrible will happen to us. You know there's nothing in the world that I wouldn't do for you.* Tarjimasi: *O, Dirk, butun hayotim mobaynida hech qachon sendan hech narsani iltimos qilmaganman. Yo'q,*

yo 'q! Nima deyayotganimni bilib turibman. Qandaydir dahshatli narsa ro'y beradi. Sen uchun hamma narsaga tayyorligimni bilasan-ku, axir.

Ko'rinadiki, bunda asliyatda qo'llanilgan "Oh" undovi tarjimada "O" undovi bilan berilgan. Holbuki, ular tovushlar tarkibiga ko'ra farq qiladi.

Ingliz tilida: **Oh**, Charles, how can you! You are sweet (S.M. Theatre, 105).

O'zbek tilida: **O**, Charlz, bu haddan ziyod qimmatbaho buyum. Siz biram iltifotlisizki! (G.M. O'tkinchi ehtiros, 67).

"O" undovi ham ingliz va o'zbek tillarida shaklan va mazmunan muqobillikda ham qo'llanadi: *Goes back to the House of Pain*, **O Master!** (Wells H.G. The Island of Dr. Moreau, 1896; 87) – *Uqubat uyiga qaytajak*, **o**, qudratli og'a! (G.Uells. Doktor Moro oroli, 78).

A.D.Shveysyer tomonidan taklif qilingan funksional-analog tarjimada matndagi so'z muqobili tarjima qilinayotgan tilda ham topilib, o'rniga shu muqobil qo'yiladi [Hakimova, 2014].

Ingliz tilidagi "ah" undovi o'zbek tiliga "he" undovi bilan o'girilgan holatlar ham uchraydi: *Ah, you bloody coward! he yelled* (Th.D. Sister Carrie, 326) – *He,razil, qo'rzoq!* (T.D. Baxtiqaro Kerri, 430).

S.Moemning "Oy va sariq chaqa" romanida Striklend bilan qayta ko'rishishga muvaffaq bo'lgan Dirk hayajonga va ehtirosga berilib: *Thank God. I've found you*", ya'ni *"Xudoga shukur, seni topdim!* – deya xitob qiladiki, bunda modal so'zning ekspressivlikni oshirishdagi o'rni va roli bo'rtib turibdi.

MUNOZARA

Pragmatika va grammatika munosabati ham alohida diqqatni tortuvchi masalalardan biridir. Qolaversa, tilshunoslar uzoq vaqtdan beri grammatik hodisalarni soddaroq va tushuntirib berish uchun pragmatik nazariyaga tayanishga intilishgan.

Sintaksis-pragmatik interfeysning ba'zi muhim xususiyatlari, jumladan, grammatik konstruksiyalarni tavsiflashda va grammatik jarayonlarga cheklovlarni shakllantirishda kontekstning roli (so'zlovchilarning e'tiqodlari va niyatlarini qamrab oluvchi) ko'rib chiqiladi.

Barcha pragmatik ma'lumotlar oxir-oqibat indeksli ma'lumotdir, ya'ni so'zlovchi, tinglovchi, vaqt va belgi ko'rsatadigan biror narsani aytish harakatining joylashuvi indeksleri bilan bog'liq.

Pragmatik ma'lumotlar, eng avvalo, psixik modellar haqida ma'lumot: so'zlovchi va qabul qiluvchining bir-birining aqliy modellaridir.

Lingvistik pragmatika so'zlovchining adresat modelini va tinglovchining modelini o'z ichiga oladi.

Pragmatikaning an'anaviy va noan'anaviy kabi ikki turi o'zaro farqlanadi. An'anaviy pragmatika pragmatik kontekstlarda ma'lum cheklovlar bilan tilning ma'lum rasmiy xususiyatlarining an'anaviy assotsiatsiyasidir. An'anaviy pragmatikaning ta'siri kerak bo'lmagan effektlardir.

Noan'anaviy pragmatika til foydalanuvchilari tomonidan muayyan kontekstlarda jummalarni tushunish yoki ishlab chiqarish effektlarini o'z ichiga oladi. Til inson

faoliyati bilan bog‘liq hodisa bo‘lgani uchun bu effektlar universal bo‘lishi kuzatiladi. Suhbat pragmatikasi noan’anaviy pragmatikaning eng mashhur namunasi.

Noan’anaviy pragmatika ko‘pincha grammatiklashtirish jarayoni orqali tilning an’anaviy pragmatik xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Lingvistik ma‘no (semantika) nazariyasini tildan foydalanish nazariyasidan (pragmatika) ajratish uchun asosli asos bor. Bu asos esa ularning bir-biri bilan bog‘lanmaganida ko‘rinadi. Chunki jumalarning ma‘nosini so‘zlovchi (muallif, ijodkor) ularni qanday ishlatishida anglashiladi.

N.Mahmudov tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning shakllanishi haqida mulohaza yuritarkan, “Tilning obyektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antropotsentrik paradigmada inson asosiy o‘ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi”, – deya ta’kidlaydi [Mahmudov, 2012]. Unda olamning milliy tasviri (manzarasi, kartinasi, surati) asosiy muammolardan biri sifatida namoyon bo‘ladi [Litkin, 2010].

V.A.Maslova inson aqlini, insonning o‘zidan, tildan va nutq yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo‘lmasligini aytadi.

Tildagi undov, taqlid hamda modal so‘zlar ham olamning milliy lisoniy manzarasiga mansub bo‘lib, ular ham o‘z, ham ko‘chma ma’nolarda qo‘llanadi. Ularning kontekstual ma‘nosi, ko‘chma ma‘nosi va sinonimlari mavjud. Masalan:

cip etti – 1. Chirilladi (chigirtkaga nisbatan). 2. (Qalam) shitirladi, shirilladi. I, 313-15; ar. 272-9. (“Devoni lug‘otut turk” lug‘at, 1967; 225);

chab-chab – 1. Qamchi urilganda chiqadigan ovoz. 2. Labning shapillagan tovushi. 3. Tadlidiy so‘z (shap-shap, chap-chap). I, 308-23; ar. 267-8. (“Devoni lug‘otut turk” lug‘at, 1967; 318);

chap-chap – shap-shap. 1. Qamchi urilganda chiqadigan ovoz. 2. Labning shapillagan tovushi. 3. Taqlid so‘z (shap-shap, chap-chap). I, 308-26; ar. 267-9. (“Devoni lug‘otut turk” lug‘at, 1967; 321);

chish-chish – yosh bolalar va chaqaloqlarni to‘shda xotinlar tomonidan qo‘llanadigan “chush-chush” degan so‘z. Ot mingan kishi ham otni minib kelgandan so‘ng uni siydirish uchun bu so‘zni qo‘llaydi (“Devoni lug‘otut turk” lug‘at, I-jild, 1960; 319).

Agar undov, taqlid hamda modal so‘zlar tadqiqiga antropotsentrik paradigmaning nazariy yutuqlari asosida yondashilsa, ularga aloqador til birliklari va til sohibi birgalikda o‘rganiladi. Ular bilan bog‘liq tildagi o‘zgarishlarning, yangilanishlarning sababi insondan, jamiyatdan izlanadi. Shunga ko‘ra, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridagi undov, taqlid va modal so‘zlarni nazardan o‘tkazganimizda quyidagilarni uchratdik (2-jadvalga qarang):

Undovlar	Taqlid soʻzlar
Awa – alamlanishni bildiruvchi undov soʻz	Ba – qoʻyning maʼrangan ovozi
Ala – “sekin”, (shoshilmay) maʼnosidagi undov Ach – hoy, he – undov, “hoy, hoy”, “ey”	Ma – echki va qoʻzilarning maʼrash ovozlari
Balu-balu – alla oʻrnidagi soʻz (alla-alla)	jīn (chīn) tamoman – liq (toʻla).
Va – “voy”, “oy!” undovi	Jiring – jiring ovozi
Zaq-zaq – qoʻchqorni suzishga undovchi soʻz	mujav – mushuk ovozi.
Kāh-kāh – itni chaqirishdagi undov soʻz	urkunch – shov-shuv
Osh-osh – ush-ush, hoʻsh-hoʻsh, hoʻkizni sugʻorishda aytiladigan undov soʻz	chaldir-chaldir – shaldir-shuldir (tovush).
tushu-tushu – eshakni toʻxtatadigan soʻz	chagʻ-chugʻ – shovqin-suron
tuku-tuku – kuchuk bolasini chaqiradigan soʻz	chīgʻ-il-tīgʻ-il – gʻijir-gʻijir
uva//ova - a, labbay	chur-chur (jyp-jyp) – cut sogʻishda chiqqan ovozi
xoch-xoch – echki podasini haydashda, hech-hech (hech-hech) – podani qaytarishda, hach-hach – mol-lar boshini bermay harakatlanganda tinchitish uchun,	Shal-shul – uquvsiz
chik-chik – echkilarni chaqirishda qoʻllanadigan undovlar	qīqī – shovqin-suron
Chuh-chuh – otni yurgizish uchun aytiladigan soʻz	Urīqīqī – shovqin-suron
Chuk-chuk (choʻk-choʻk) – tuyani choʻktirishda qoʻllanadigan undov soʻz	zab-zab – yurishda oyoq harakatining tezligidan chiqqan ovoz. Ship-ship degan soʻz
shuk – jim, tek, tss – undovi	shar-shar – qattiq yomgʻir yogʻish tovushi.
qī – hey maʼnosini beruvchi undov soʻz	Har bir suyuq narsaning oqish tovushi
tah-tah – lochin uchirilgandan soʻng chaqiriladigan soʻz	chik-chik – oshiq oʻyinida oshiqning qorni bilan yotgan holati, chiki
ach – “hoy, hoy, he” undovlari	chek-choʻk – laxtak-luxtak
a: – hayronlik, taajjubni bildiruvchi soʻzlar	shal-shul – qoʻli ishga qovushmagan
av – (qattiq talaffuz qilinadi) buyuruvchining buyrugʻini pisand qilmaslik, boʻysunmaslik oʻrnida qoʻllanuvchi “a?!” nima deyapsiz? mazmunidagi undov.	

Devonda his-hayajonni anglatuvchi ah! / ax! yoki aha! / aga! (hayratlanish, ogʻriq, qoyil qolish maʼnosidagi undovlardan tortib (hozirda ular oʻzbek tilida oh, voh, bay-bay, voy, aha, oh-oh, oho undovlari bilan beriladi) no-no; chu-chu kabi otni qaytarish uchun aytiladigan murojaat undovlarigacha keltirilgan. Ular orasida undov va taqlidlardan yasalgan feʼllar ham mavjud. Masalan: jagʻilladi – (suv) sharilladi, iqradi (chiqradi) – gʻijirladi, toʻngʻilladi, jyldradi – yalt etdi, urpardi – uh tortdi, oh-voh qildi, kōritti – vovullatdi, toqitti – taqillatdi va hokazolar uchraydi.

Oʻzbek tilidagi bir taqlid ifoda ingliz tilida bir necha variantlarda beriladi yoki aksincha. Masalan, **be** eʼtiroz yoki ajablanish, norozilikni, **vovaylo** – afsus, attang, evoh, oh-voh, hasrat, afsus-nadomatni, **voy**, **voey** – qattiq alam yoki ortiq darajadagi zavq, quvonch, hayajon, qoʻrquv yoki sevinch, hayrat, taajjub kabi histuygʻularni, **voyboʻ(y)** – ajablanish, hayratni, **voh** – gʻam, qaygʻu, alam, afsus yoki ogʻriqni, **vuy** – mubolagʻa, hayratni ifodalaydi.

Sh.Butayev, A.Irisqulov tomonidan tuzilgan “Inglizcha-oʻzbekcha, oʻzbekcha inglizcha izohli lugʻati”ni (2009) kuzatganimizda, unda **Aha** (interjection) / aha, **aji-aji** (noun) – children’s game (bolalar oʻyining nomi), **ang-ang** (noun) – dog’s

whistle onomatopoeia (itning angillash tovushi), **ay** (interjection) – halloo!, hullo!, hey!, hi!, heigh!, **ax** (interjection) – ah!, oh!, **ayhay** (interjection) – hallo!, I say!, **bay-bay** (the interjection, expresses a regret, surprise, admiration and etc.) – ah!, oh!, o!, **be** (interjection) – oh!, well (expressing amazement or disbelief), **beh-beh** (interjection) – chuck-chuck, **dirr** (interjection) – whoa! **ey** (interjection) – hey!, **evoh** (interjection) – alas!, **ibi** (interjection) – oho! Really! Indeed! Is that so? That's it, is it? You don't say so!, **ih** (interjection) (expresses displeasure); ohh! Gosh! Ah! Eh! Oh!, **illo-billo** (a) (interjection) – on no account, in no circumstances, **illo** (interjection) – exclude, except, rule out, but, **iloyo** (interjection) – Oh, Lord! Oh my God!, **iya (iye)** – interjection which expresses surprise oho!, really? indeed! Is that so! That's it, is it! you don't say so!, **jiring** – clink (tinkle, jingle, jangle), **kakku, kuk-ku** – cuckoo, **kirt-kirt** – crunch's onomatopoeia, **kisht** – an interjection to drive away off chickens **kuf, kuh** (interjection) – Fie! Ugh! Faugh!, **miyov** – mew, miaow (cat sound), **mish-mish** – rumour, gossip, common talk, idle talk, hearsay, **oh** (interjection) – o; oh! Ah, **oho** (interjection) – oho! Wow, **pisht** (interjection) – shoo! (to a cat), **pish-pish** (interjection) – kitty, kitty! **puf** (noun) – puff, puffing, blowing, **po'sht** (interjection) – look out, take care, watch out, **voh** (interjection) – aw, ooh, ouch (sorrow, disappointment, pain), **vuy** (interjection) (interjection which expresses surprise and admiration) – o!, oh!, well!, **yalt-yalt, yalt-yult** – gleam (porlash), **zuv-zuv** – onomatopoeia to hum (insect va hokazo kabi undov va taqlid so'zlarining izohlab keltirilganiga guvoh bo'ldik.

N.Aliboyeva fikricha, taqlid ifodalarni tarjimada transliteratsiya, asliyatdagi so'zni milliy konsept yoki neologizm sifatida o'zlashtirish, taxminiy tarjima, kontekstual tarjima kabi to'rt xil usulda berish mumkin. Yana uning ta'kidlashicha, taqlid birlikni aynan taqlid ifoda bilan tarjima qilishning imkoni bo'lmasa, so'zning muqobili topilmasa, uni birikma orqali berish imkoni eng to'g'ri yechimdir.

Odatda, badiiy tarjimaning adekvatligini ta'minlash uchun turli grammatik kategoriyalarni chog'ishtirma usulda o'rganishga to'g'ri keladi. M.Irisqulov ta'kidlaganidek, “tarjima maqsadidagi chog'ishtirish asosida bir umumiy ma'noning ikki tildagi ifodalanish vositalarini aniqlash yotadi. Tarjima qilinayotgan matnning ma'nosini ikkinchi til vositalari orqali ifodalash tarjimaning asosiy maqsadidir” [Irisqulov, 1992].

Undov, taqlid va modal so'zlarni ingliz tilidan o'zbek tiliga yoki o'zbek tilidan ingliz tiliga o'girish jarayonida tarjimaning filologik, lingvistik va kommunikativ usullaridan birini tanlash mumkin. Bunda filologik tarjimaga muvofiq undov, taqlid va modal so'zlar aynan asliyatdagidek (o'zidek) berilishi lozim sanalgan.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, emotiv, taqlid va modal so'zlar nutqning pragmatik mazmunini shakllantiruvchi muhim til birliklari hisoblanadi. Ular nafaqat so'zlovchining hissiy holati, baholovchi munosabati va kommunikativ niyatini ifodalashga, balki matnning ekspressivligi hamda ta'sirchanligini oshirishga ham xizmat qiladi. Mazkur birliklarning ma'nosi ko'p hollarda nutq vaziyati va kontekst orqali to'liq namoyon bo'lib, ularni pragmatik nuqtayi nazardan o'rganish zaruratini

tasdiqlaydi.

Qiyosiy tahlillar o‘zbek va ingliz tillaridagi undov, taqlid hamda modal so‘zlar o‘rtasida umumiy funksional xususiyatlar bilan bir qatorda, har bir tilning milliy-madaniy o‘ziga xosligini aks ettiruvchi farqli jihatlar ham mavjudligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, taqlid va emotiv birliklarning fonosemantik tabiati hamda modal so‘zlarning subyektiv munosabatni ifodalashdagi imkoniyatlari tarjima jarayonida alohida e‘tibor talab etishi aniqlandi.

Tahlil qilingan tarjima namunalari ushbu birliklarni o‘g‘irishda ekvivalent tarjima, tavsifiy ifodalash, transliteratsiya, transformatsiya, boshqa vositalar bilan almashtirish hamda ayrim hollarda tushirib qoldirish kabi usullar keng qo‘llanishini ko‘rsatdi. Biroq bunday o‘zgarishlar aslyatdagi emotsional-ekspressiv bo‘yoq, uslubiy xususiyat va pragmatik ta‘sirning qisman yo‘qolishiga yoki aksincha kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli tarjimon til birliklarining lug‘aviy ma‘nosidan tashqari, ularning kontekstual va pragmatik yukini ham hisobga olishi lozim.

Umuman olganda, emotiv, taqlid va modal so‘zlarni pragmalingsistik hamda tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish tarjima sifatini oshirish, milliy-madaniy mazmunni saqlash va aslyatning kommunikativ ta‘sirini qayta tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida mazkur yo‘nalishda turli funksional uslublar, korpus materiallari hamda boshqa tillar misolida kengroq qiyosiy tadqiqotlar olib borish tarjimashunoslik va pragmatika nazariyasini yanada boyitishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurasulov, Y. (1972). *Struktura zvukopodrazhatel'nykh slov v uzbekskom yazyke*. Avtoref. diss. kand. filol. nauk. Tashkent: Nauka.
2. Aliboyeva, N.M. (2021). *O‘zbek va ingliz tillarida taqlid so‘zlarning qiyosiy tadqiqi*. Filol. fan. fals. dok. diss. Andijon: Andijon davlat universiteti.
3. Aznaurova, Ye.S. (1973). *Ocherki po stilistike slova*. Toshkent: Fan.
4. Butayev, Sh., & Irisqulov, A. (2009). *Inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-inglizcha lug‘at*. Toshkent: Fan.
5. Dreiser, T. (2020). *Sister Carrie*. Retrieved from <https://www.globalgreyebooks.com>.
6. Drayzer, T. (2007). *Baxtiqaro Kerri (Sister Carrie)*. Toshkent: Sharq.
7. Fatyukhin, V.V. (2000). *Osobennosti perevoda zvukopodrazhaniy i mezhdometnykh glagolov: Na materiale russkogo i angliyskogo yazykov*. Avtoref. diss. kand. filol. nauk. Moskva.
8. Gafur, G. (2015). *A naughty boy*. Tashkent: A New Generation.
9. Gafur, G. (2017). *A naughty boy* (Translation). Tashkent: A New Generation.
10. Gerbert, U. (1993). *Doktor Moro oroli* (T.Jo‘rayev & M.Mamajonova, Tarjl.). Toshkent: Navro‘z.
11. Hakimova, Sh.R. (2014). Priemy perevoda internatsional'nykh realiy. V *Filologiya i lingvistika v sovremennom obshchestve: Materialy II Mezhdunarodnoy nauchnoy konferentsii* (ss. 179–181). Moskva: Buki-Vedi.
12. Irisqulov, M. (1992). *Tilshunoslikka kirish*. Toshkent: O‘qituvchi.
13. Izard, C.E. (2008). *Psixologiya emotsiy*. Sankt-Peterburg: Piter.
14. Kushnina, L.V. (2006). *Vzaimodeystvie yazykov i kul'tur v perevodcheskom prostranstve*. Diss. dok. filol. nauk. Perm.
15. Lytkin, O.I. (2010). Tipy kartin mira v reprezentatsii kontsepta. *Russkiy yazyk za rubejom*, 4, 64–67.
16. Mahmudov, N. (2012). *Tilimizning tilla sandig‘i*. Toshkent: Fan.

17. Mahmudov, N. (2012). Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab. *O'zbek tili va adabiyoti*, 5, 6–7.
18. Nuckolls, J.B. (1999). The case for sound symbolism. *Annual Review of Anthropology*, 28, 225–252.
19. Samarin, W.J. (1971). Survey of Bantu ideophones. *African Language Studies*, 12, 130–168.
20. Somerset, M. (2013). *O'tkinchi ehtiros*. Toshkent: Dizayn Press.
21. Somerset, M. (2014). *Yomg'ir* (A.Otaboyev, Tarj.). Toshkent: Akademnashr.
22. Somerset, M. (2018). *Ajal ta'qibi* (M.Omon, Tarj.). Toshkent: Yangi asr avlodi.
23. Somerset, M. (2018). *Omadi chopgan musavvir* (M.Omon, Tarj.). Toshkent: Adabiyot uchqunlari.
24. Uells, G. (1993). *Doktor Moro oroli* (T.Jo'rayev & M.Mamajonova, Tarjl.). Toshkent: Navro'z.
25. Tikhomirov, O.K. (1984). *Psixhologiya myshleniya*. Moskva: Izdatel'stvo Moskovskogo universiteta.
26. Vlahov, S., & Florin, S. (1980). *Neperevodimoe v perevode*. Moskva: Mezhdunarodnye otnosheniya.
27. Yo'ldoshev, M. (2019). *Badiiy matn lingvopoetikasi*. Toshkent: O'zbekiston.
28. Shakhovskiy, V.I. (1983). *Emotivnyy komponent znacheniya i metody ego opisaniya*. Volgograd: Volgogradskiy gosudarstvennyy pedagogicheskiy institut.
29. Shakhovskiy, V.I. (1987). *Kategorizatsiya emotsiy v leksiko-semanticheskoy sisteme yazyka*. Voronezh: Voronezhskiy universitet.
30. Chironov, S.V. (2004). *Onomapoeticheskie slova v sovremennom yaponskom yazyke. Avtoref. diss. kand. filol. nauk*. Moskva.

REFERENCES

1. Abdurasulov, Y. (1972). The structure of onomatopoeic words in the Uzbek language. *Abs. cand. scien. diss. philol.* Tashkent: Science Publishing House.
2. Aliboyeva, N.M. (2021). A comparative study of onomatopoeic words in Uzbek and English. *PhD thes. in philol.* Andijan: Andijan State University.
3. Aznaurova, Y.S. (1973). *Essays on the stylistics of the word*. Tashkent: Science Publishing House.
4. Butayev, Sh., & Irisqulov, A. (2009). *English-Uzbek, Uzbek-English dictionary*. Tashkent: Science Publishing House.
5. Chironov, S.V. (2004). Onomatopoeic words in the modern Japanese language. *Abs. cand. scien. diss. philol.* Moscow.
6. Dreiser, T. (2007). *Sister Carrie*. Tashkent: East.
7. Dreiser, T. (2020). *Sister Carrie*. Retrieved from <https://www.globalgreyebooks.com>.
8. Fatyukhin, V.V. (2000). Peculiarities of translating onomatopoeic and interjectional verbs: Based on Russian and English. *Abs. cand. scien. diss. philol.* Moscow.
9. Gafur, G. (2015). *A naughty boy*. Tashkent: A New Generation Publishing House.
10. Gafur, G. (2017). *A naughty boy* (Translation). Tashkent: A New Generation Publishing House.
11. Gerbert, U. (1993). *The Island of Doctor Moreau* (T.Jorayev & M.Mamajonova, Transls.). Tashkent: Navroz Publishing House.
12. Hakimova, Sh.R. (2014). Techniques for translating international realia. In *Philology and Linguistics in Contemporary Society: Proceedings of the II International Scientific Conference* (pp. 179–181). Moscow: Buki-Vedi Publishing House.
13. Irisqulov, M. (1992). *Introduction to linguistics*. Tashkent: Teacher Publishing House.
14. Izard, C.E. (2008). *The psychology of emotions*. Saint Petersburg: Piter Publishing House.
15. Kushnina, L.V. (2006). Interaction of languages and cultures in the translation space. *DSc thes. philol.* Perm.

16. Lytkin, O.I. (2010). Types of worldviews in the representation of concepts. *Russian Language Abroad*, 4, 64-67.
17. Mahmudov, N. (2012). In search of ways toward a comprehensive study of language. *Uzbek Language and Literature*, 5, 6-7.
18. Mahmudov, N. (2012). *The golden treasury of our language*. Tashkent: Science Publishing House.
19. Nuckolls, J.B. (1999). The case for sound symbolism. *Annual Review of Anthropology*, 28, 225-252.
20. Samarin, W.J. (1971). Survey of Bantu ideophones. *African Language Studies*, 12, 130-168.
21. Shakhovskiy, V.I. (1983). *The emotive component of meaning and methods of its description*. Volgograd: Volgograd State Pedagogical Institute Press.
22. Shakhovskiy, V.I. (1987). *Categorization of emotions in the lexical-semantic system of language*. Voronezh: Voronezh University Press.
23. Somerset, M. (2013). *Transient passion*. Tashkent: Design Press.
24. Somerset, M. (2014). *Rain* (A.Otaboyev, Transl.). Tashkent: Akademnashr.
25. Somerset, M. (2018). *The fortunate painter* (M.Omon, Transl.). Tashkent: Sparks of Literature Publishing House.
26. Somerset, M. (2018). *The pursuit of death* (M.Omon, Transl.). Tashkent: New Century Generation Publishing House.
27. Tikhomirov, O.K. (1984). *The psychology of thinking*. Moscow: Moscow University Press.
28. Vlahov, S., & Florin, S. (1980). *The untranslatable in translation*. Moscow: International Relations Publishing House.
29. Wells, H.G. (1993). *The Island of Doctor Moreau* (T.Jo'rayev & M.Mamajonova, Transl.). Tashkent: Navroz Publishing House.
30. Yoldoshev, M. (2019). *The linguopoetics of literary texts*. Tashkent: Uzbekistan Publishing House.